

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.60.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XOLISOVA GAVHAROY MANNOBJON QIZI

TIJORIY MATNLARNING PSIXOLINGVISTIK TADQIQI

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2022

UO'K: 811.512.133'42:33

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
philological sciences**

Xolisova Gavharoy Mannobjon qizi

Tijoriy matnlarning psixolingvistik tadqiqi

..... 3

Холисова Гавхарой Маннобжон қизи

Психолингвистическое исследование коммерческих текстов.....

Kolisova Gavharoy Mannobjon qizi

Psycholinguistic study of commercial texts.....

Список опубликованных работ

List of published works.....

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.60.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XOLISOVA GAVHAROY MANNOBJON QIZI

TIJORIY MATNLARNING PSIXOLINGVISTIK TADQIQI

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2022

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Fil1201 bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.adu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shaxabitdinova Shoxida Xoshimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mirzaxidova Muyassar Inamjanovna
filologiya fanlari doktori, professor

Xolmurodova Mehriniso Ibrohimovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.60.02 raqamli Ilmiy kengashning 2022-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129 uy. Tel: 0(374) 223 88 14; faks: 0(374) 223 88 30 e-mail: agsu_info@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahar, universitet

Dissertatsiya avtoreferati 2022-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2022-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

N.M.Uluqov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

F.F.Usmanov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

M.E.Umarxodjaev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida matnning kognitiv-pragmatik tadqiqiga doir ilmiy izlanishlar keng miqyosda olib borilmoqda, ayniqsa, lisoniy vositalarning diskurs maqomidagi o'rganilishi amaliy jihatdan ancha samarali kechmoqda. Til birliklari, lisoniy imkoniyatlar davr nuqtai nazaridan kengayib boraveradi. Shu nuqtai nazardan turli uslubdagi matnlarni zamonaviy aspektlarda tekshirib ko'rish tilshunoslikka yangi ma'lumotlar, g'oyalar taqdim qiladi.

Dunyo uslubshunosligining dunyodagi hozirgi rivojlanish bosqichidagi eng muhim vazifalaridan biri bu funksional uslublarni o'rganishdir. Bugungi kunda madaniy modellar o'rtasidagi shaffoflikni oshirish, madaniyatlararo ijtimoiy va tijoriy aloqalari rivojlanib bormoqda, an'anaviy muloqot usullari, shuningdek, tijoriy diskurs o'zgarmoqda: bunday diskurs inson faoliyatining nafaqat iqtisodiy, balki ishlab chiqarish, siyosiy, texnik, ijtimoiy, ilmiy va madaniy sohalaridagi o'zaro ta'sirlarning butun bir majmuini birlashtiradi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda tijorat ishlari sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar bilan turli shartnoma va bitimlar imzolanmoqda. Shu o'rinda tilning mazkur soha rivojiga qo'shadigan hissasi, tijorat bilan bog'liq matnlarning mazmuni, ularda lisoniy imkoniyatlarning voqelanishi masalalarini o'rganish zaruratga aylanib bormoqda. "Chunki necha asrlar osha ajdodlarimizdan bizga bezavol o'tib kelayotgan ona tilimizning ravnaqi va istiqboli haqida qayg'urish – bu millatning o'zligini anglashi, uning ma'naviy kamolotini yuksaltirish uchun kurash demakdir. Davlat tilining obro'-e'tibori – butun xalq, butun jamiyatning obro'-e'tiboridir."¹ Shu bilan birga, tijoriy muloqot, boshqa har qanday sohadagi aloqa singari, bugungi kunda ham chuqur transformatsiyalarga va o'zgarishlarga duch kelayotganligini umumiy e'tirof etishiga qaramay, so'nggi o'n yilliklar ichida shakllangan yangi jihatlar, tijoriy diskursning muhim xususiyatlari juda kam o'rganilganicha qolmoqda. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti o'zbek tilidagi matnlarda psixolingvistik yondashuv mantig'ida tijoriy diskursni o'rganishga bag'ishlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari

¹ Мирзиёев Ш. Ўзбекистон халкига байрам табриги // Халқ сўзи, 2020 йил 21 октябрь.

rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishi doirasida bajarildi.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Q. Sodiqov va Q.O.Omonovlar uslublarning tabiati borasida fikr yuritadilar². O’zbek tili nutq, muloqot madaniyatiga oid ishlarda tijoriy diskursni nazariy jihatdan o’rganish o’rtaga jiddiy qo’yilgan emas. S. Ibrohimov, E. Begmatov, L. Xo’jaeva, I. Ibrohimov, B. O’rinboev, S. Inomxo’jaev, R. Qo’ng’urov, S. Karimov, T. Qurbonov, A. Rustamov, A. Abdurahmonov, N. Mahmudov, T. Qudratov, Y. Tojiev, N. Hasanova, H. Tojimatov, O. Yo’ldosheva, B.X. Rahmatullaeva, Sh. Iskandarovalarning ishlarida nutq madaniyatiga oid bir qator nazariy fikrlar aytilgan³.

S. Mo’minovga ko’ra, o’zbek tilshunosligida nutq madaniyatini sof lingvistik, uslubiy yoki pedagogik maqsadda yoritib berishga qaratilgan bo’lib, masalaga ijtimoiy-lisoniy aspektida yondashilmagan.⁴

Tijorat sohasida kommunikativ o’zaro ta’sirning xususiyatlarini aks ettiradigan yangi atamalar, tushunchalar haqida Yu.V. Danyushina tadqiqotlarini ko’rsatish mumkin⁵. E. Azimov, A. Shukin ishbilarmonlik muloqotning asosiy farqi faoliyat sohasida ekanligini ta’kidlashadi.⁶ S. Bolshakov, M. Potolokova, E.Yu. Karlovaning asarlarida ishbilarmonlik muloqotining muhim xususiyatlari, maqsadga muvofiqligi, shuningdek, o’rganilgan hodisa bilan “biznes sohasida maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyat” ekanligi ta’kidlanadi⁷.

O’zbek tilshunosligida R. Karimov⁸ o’zbek tijorat xatlarini lingvopragmatik aspektida ingliz tili materiallariga qiyoslab o’rgangan olim hisoblanadi. D.A. Babaxanovanning tadqiqotida hozirgi zamon adabiy o’zbek tilida rasmiy-xizmat

²Содиқов Қ. Омонов Қ.О. Ўзбек тилининг ёзма услублари тарихидан. <http://azrefs.org/osimjon-sodiov-udratulla-omonov-zbek-tilining-ezma-uslublari-t.html?page=9>

³ Қаранг: Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992; Иброҳимов С. Ўзбек тили нутқ маданиятига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1964, 5-сон; Бегматов Э. Ўзбек нутқ маданияти масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980 – Б.4; Хўжаева Л. Нотиклик санъати. – Тошкент, 1967; Иброҳимов И. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида. – Тошкент: Фан, 1972; Ўринбоев Б. Сўзлашув нутқи. – Тошкент: Фан, 1979; Иномхўжаев С. Нотиклик санъати асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982; Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари. – Самарқанд, 1985; Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент, 1981; Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993; Тожиев Ё., Ҳасанова Н., Тожиматов Х., Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубияти асослари. – Тошкент, 1994; Раҳматуллаева Б. Х. Этикет форма обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским). Автореф. дис. канд. филол. наук. – Тошкент, 1992; Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дис. автореф. – Самарқанд, 1993.

⁴ Мўминов С. Ўзбек мулоқот ҳулқининг ижтимоий-лisonий хусусиятлари – Фарғона: 2020. – 229 б.

⁵ Данюшина Ю. В. Бизнес-дискурс: термин, типология, анализ// Известия Волгоградского государственного педагогического университета. – 2010. – № 2 (46). – С. 48-52. – С. 49

⁶ Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с. – С. 57

⁷ Большаков С. Н. Бизнес-коммуникации : учеб. пособие / С. Н. Большаков, М. О. Потолокова — СПб.: С.-Петербург. гос. ун-т, филол. ф-т, 2012. — 137 с. – С. 55; Карлова Е. Ю. Этика бизнес-коммуникаций в современной России: автореф. дис. ... канд. философ. наук. – Москва, 2015. – 26 с. – С. 14

⁸ Каримов Р. Тижорат хатларининг лингвопрагматик аспекти: ўзбек ва инглиз тили материаллари асосида: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс.. – Т., 2018.

uslublari tahlil etiladi⁹. D.M. Teshaboeva esa o'zbek va rus tillaridagi savdo-sotiq sohasidagi xizmat xatlarida nutqiy etiketning qo'llanilishiga e'tibor qaratgan¹⁰. Tadqiqotimizda mazkur yo'nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, o'zbek tijoriy matnlari psixolingvistik aspektda maxsus o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqotlar rejasining «Filologiyaning dolzarb muammolari va ularni amaliyotga joriy etishning yangi texnologiyalari» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi o'zbek tilida tijoriy diskursning rivojlanish xususiyatlarini psixolingvistik nuqtai nazardan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

o'zaro ta'sirning maxsus turi sifatida tijoriy muloqotning xususiyatlarini o'rganish;

tijoriy muloqotning maqsadi, funksiyalari, vazifalarini aniqlash;

tijorat aloqalarining aniqligi, standartlashuvi, rasmiyligi, qisqaligi kabi uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish;

tijorat matnlarining tarkibiy va kompozitsion xususiyatlarini o'rganish;

zamonaviy o'zbek tijoriy diskursni o'rganishga qaratilgan psixolingvistik tahlil metodikasini ishlab chiqish;

psixolingvistik tahlil asosida tijoriy muloqotda axborot strategiyasini amalga oshirish xususiyatlarini aniqlash;

tajriba natijalariga ko'ra o'zbek tijoriy diskursida motivatsiyani amalga oshirishni tahlil qilish;

tahlil natijalariga ko'ra tijoriy muloqotda rad etishni aks ettirish xususiyatlarini aniqlash;

tijoriy diskursda uzr so'rashni ifodalashning o'ziga xos jihatlarini o'rganish.

Tadqiqot obyekti zamonaviy o'zbek tijoriy diskursi hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti ekstralingvistik, psixologik, subyektiv, individual va ijtimoiy, obyektiv, jamoaviy omillar ta'siri bilan shakllangan zamonaviy tijoriy diskursning psixolingvistik xususiyatlari.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda umumiy ilmiy metodlar (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, sharhlash va boshqalar) bilan bir qatorda semantik va pragmatik talqin qilish usullari, diskurs tahlillari, lug'at ta'riflarini tahlil qilish usuli, qiyosiy tavsiflash usuli, psixolingvistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

zamonaviy tijoriy diskursni psixolingvistik o'rganish uchun birliklarni tanlashda amal qilish lozim bo'lgan qo'llanish tezligi, zamonaviy foydalanish yoki ma'noga muvofiqligi, madaniy, ijtimoiy ahamiyatga egalik, semantik jihatdan faollik xususiyatlari aniqlangan;

⁹Бабаханова Д.А. Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка: Дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1987. – 122 с.

Тешабаева Д.М. Речевой этикет делового письма: Автореф. ... канд.филол. наук. –Ташкент, 2000. – 19 с.

psixolingvistik tahlil o'tkazishning lug'at ta'riflarini umumlashtirish, korpusli tahlil, tahlil natijalari tavsifi, so'z semantikasining assotsiativ tavsifi, assotsiativ reaksiyalarning semantik talqini kabi bosqichlari mavjudligi aniqlangan;

muloqot vaziyati, tijoriy matnlar yaratishda motivatsiya, shikoyat, rad etish, kechirim, ma'lumot modalligini ifodalashning ohang, so'z tartibi, undov kabi lisoniy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan;

tijoriy munosabatlarning rivojlanishida tomonlar muloqotining samarali bo'lishida milliy mentalitet, tijoriy muloqot madaniyatining o'zbekona jihatlari dalillanib, muloqotda nutq xususiyatlari emas, balki ekstralingvistik omillar, ya'ni nutq vaziyati muhimligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy o'quv yurtlarida umumiy, o'zbek tilshunosligi, kommunikativ lingvistika kabi fan yo'nalishlarida yaratilajak darslik va qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

tadbirkorlar uchun o'zbekona muloqot asoslarini yaratish imkoniyati dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma'ruzalar, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy ahamiyati tijoriy aloqalarning turli jihatlarini chuqur o'rganishda, zamonaviy tijoriy diskursning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlarini, matndan tashqari ekstralingvistik omillarni, birinchi navbatda psixologik va ijtimoiy xususiyatlarni aniqlash asosida ko'rib chiqishdan iborat.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tijoriy diskursda kommunikantlarning nutqiy o'zaro ta'sir xususiyatlarini aniqlash va tizimlashtirish, zamonaviy tijoriy diskursning konvertatsiya qilish xususiyatlarini belgilaydigan ekstralingvistik omillarni o'rganishdir. Olingan natijalar tilshunoslik fanlarini (stilistika, leksikologiya, matnni talqin qilish va boshqalar) o'qitish uchun, amaliy muloqotning amaliy kursini, o'quv ingliz tilini o'qitishning turli bosqichlarida o'qitish uchun tavsiya etilishi mumkin. Dissertatsiya natijalaridan amaliy maqsadlarda foydalanish mumkin – tijoriy aloqalarni amalga oshirish, tijorat matnlarini yozish, ish yuritish va hk.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijoriy matnlarning psixolingvistik jihatdan tadqiqi jarayonida olingan natijalar asosida:

zamonaviy tijoriy diskursni psixolingvistik o'rganish uchun birliklarni tanlashda amal qilish lozim bo'lgan qo'llanish tezligi, zamonaviy foydalanish yoki ma'noga muvofiqligi, madaniy, ijtimoiy ahamiyatga egalik; semantik jihatdan faollik tamoyillari xususidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy - tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-F1-GOO3 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" (2012-2016 yy.) mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2021

yil 17 sentabrda 17.01/227-son ma'lumotnomasi). Natijada zamonaviy o'zbek tijoriy diskursining o'ziga xos xususiyatlari psixolingvistik yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi muloqotda nutq xususiyatlari emas balki ekstralingvistik omillar ya'ni nutq vaziyati muhimligi aniqlanib, o'zbek tijoriy muloqoti tijorat matnlarini ham til va tafakkur, til va madaniyat, til tizimi va ijtimoiy hayotning mushtarakligida o'rganish zarurligi asoslangan;

psixolingvistik tahlil o'tkazishning lug'at ta'riflarini umumlashtirish, korpusli tahlil, tahlil natijalari tavsifi, so'z semantikasining assotsiativ tavsifi, assotsiativ reaksiyalarning semantik talqini kabi bosqichlariga oid xulosalardan Germaniya Federativ Respublikasi Bremen shahridagi ilmiy markazning tilshunoslikning psixolingvistika masalasiga bag'ishlangan yillik hisobotlarini tegishli ilmiy ma'lumotlar bilan to'ldirishda hamda uni qayta shakllantirishda foydalanilgan (A&A Ausbildung und Arbeit Plus GmbH ilmiy tashkilotining 2021 yil 24 iyuldagi 204/22-son ma'lumotnomasi). Natijada olingan xulosalar aynan hisobotning tijoriy matnlarining psixolingvistik xususiyatlari tijoriy munosabatlarning rivojlanishida, tomonlar muloqotining samarali bo'lishida, milliy mentalitet tijoriy muloqot madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirilgani hamda uning yozma va og'zaki savodxonlikni rivojlantirish bo'limlarini ilmiy jihatdan ochib berishga xizmat qilgan;

muloqot vaziyati, tijoriy matnlar yaratishda motivatsiya, shikoyat, rad etish, kechirim, ma'lumot modalligini ifodalashning ohang, so'z tartibi, undov kabi lisoniy vositalaridan foydalanish imkoniyatlariga doir natijalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" teleradiokanali "Madaniy-ma'rifiy" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Vatan madhi", "Adabiyot sarchashmalari" kabi ko'rsatuvlarni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2021 yil 25 fevraldagi 02-10-410-son ma'lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlar ko'rsatuvni badiiy idrok etishi, lisoniy vositalarni to'la anglab olishiga xizmat qildi, ma'lumotlardan bahramand bo'lishida ilmiylik mezonini ta'minlangan;

tijoriy munosabatlarning rivojlanishida, tomonlar muloqotining samarali bo'lishida milliy mentalitet, tijoriy muloqot madaniyatining o'zbekona o'ziga xos jihatlari, shuningdek, muloqotda nutq xususiyatlari emas, balki ekstralingvistik omillar, ya'ni nutq vaziyati muhimligi yuzasidan olingan xulosa va amaliy takliflaridan JHBL-20 "Oila va mahalla gender tengligi mavzusida badiiy asarlarning elektron korpusini yaratish" mavzusidagi loyihada foydalanilgan ("Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutining 2022 yil 14 iyundagi 01-09/957-son ma'lumotnomasi). Natijada psixolingvistik tahlil o'tkazishning lug'at ta'riflarini umumlashtirish, korpusli tahlil, tahlil natijalari tavsifi, tijoriy munosabatlarning rivojlanishida tomonlar muloqotining samarali bo'lishida milliy mentalitet tijoriy muloqot madaniyatining o'zbekona o'ziga xos jihatlari tavsiflash tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha respublika va xorij jurnallarida jami 10ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya

komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta maqola ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, shuningdek tadqiqotning obyekt va predmeti shakllantirilgan, tadqiqot ishining O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiliklar va tadqiqotning amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Ishning I bobi "Tijoriy diskurs ilmiy tadqiqot obyekti sifatida" deb nomlanib quyidagi qismlardan iborat: "Tijoriy muloqot o'zaro ta'sirning maxsus turi sifatida", "Tijoriy muloqotning maqsadi, vazifalari", "Tijoriy muloqotning uslubiy tavsifi (rasmilik, aniqlik, standartlashtirish, qisqalik)".

Avvalo, "tijorat", "muloqot", "diskurs" tushunchalarining mazmun-mohiyatiga to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Savdo-sotiq bilan bog'liq ko'plab atamalar arab va rus tillaridan tilimizga kirib kelgani sir emas.

"Tijorat" – so'zi ham arab tilidan kirib kelgan bo'lib, o'zbek tiliga aynan o'girganda "savdo" degan ma'noni anglatadi. Tijorat savdogarlik, oldi-sotdi ishi; savdo-sotiq, savdo (savdogarlik) ishlari tushuniladi. "Tijoriy" – so'zi ham arab tilidan olingan bo'lib, savdoga oid, tijoratga oid, tegishli, aloqador degan ma'nolarni anglatadi. Tijoratchi tijorat bilan shug'ullanuvchi shaxs degan ma'noni beradi¹¹.

Muloqot – murakkab ko'rinishdagi lisoniy (nutqiy) tafakkur faoliyatidir.

Matnni turg'un, tayyor mahsulot, diskursni esa kechayotgan nutqiy muloqot jarayoni sifatida talqin qilinishi ularning keskin farqlanishiga sabab bo'ladi. Muloqot – axborot almashuv jarayoni, uning maqsadi ham shu. Shuni ta'kidlash mumkinki, biznes sohasidagi aloqa xususiyatlarini aniqlash muammosi mahalliy ilmiy adabiyotda kam o'rganilgan.

Olimlarning fikriga ko'ra, ishbilarmonlik muloqoti jarayonida ishtirokchilarning har biri, avvalambor, o'z kasbi bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni hal qilishga intiladi, bu esa ishbilarmonlik aloqasi doimo maqsadli amalga oshiriladi degan xulosaga kelish imkonini beradi. Tijoriy muloqotga kelsak, bu aloqa tijoratchilar faoliyatida amalga oshiriladi, degan xulosaga kelish mumkin. S.Bolshakov, M.Potolokovanning asarlarida ishbilarmonlik muloqoti "ma'lum bir mazmunli faoliyat turini tashkil etish va optimallashtirishga qaratilgan biznes

¹¹Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 33-34. (680 б.)

sheriklarining o'zaro ta'siri jarayoni", deb tushuniladi¹². Ta'rifda muloqotning ikkita muhim xususiyati birdaniga ta'kidlanadi: birinchisi – uning maqsadliligi va ikkinchisi muloqot kasbiy sohada sodir bo'lishidir.

Ishbilarmonlik muloqotining maqsadga muvofiqligi, shuningdek, o'rganilgan hodisa bilan "biznes sohasida maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyat" tushunilishi E.Y.Karlova tomonidan ta'kidlanadi¹³. Binobarin, muloqot har doim sohaviy tijorat maqsadlariga erishishga, kasbiy muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Tijoriy muloqot bu moddiy manfaat olishga qaratilgan tijorat faoliyati ishtirokchilarining kommunikativ o'zaro ta'siridir.

Sh.Safarov: "Til muloqot vositasi bo'lish bilan bir qatorda dunyoni bilish, uning haqida axborot to'plash va uni saqlash, boshqalarga yetkazish vositasi hamdir" – deb ta'kidlagan edi¹⁴.

Binobarin, mazkur tadqiqot doirasida tijoriy diskurs professional tijorat sohasida yuzaga keladigan, tijorat faoliyati ishtirokchilarining kasbiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan, moddiy manfaatlarga erishishga qaratiladigan, ishbilarmonlik va publitsistik, o'quv va akademik elementlar, shuningdek, shaxsiy va kundalik subdiskurslar sintezidan iborat, buning natijasida muloqot murakkab sinkretik xususiyat kasb etadigan, bu esa o'z navbatida muloqotning maqsadlari, funksiyalari, tarkibiy-kompozitsion va uslubiy xususiyatlarini belgilaydigan diskurs turi sifatida tushunilishi mumkin. Bugungi kunda tijorat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar o'rtasida rasmiy muloqotlarni tashkil qiluvchi tijoriy diskurs ham muayyan qolip – pragmatik modelga ega. Ishbilarmonlik suhbatlari, muzokaralar va hokazolarga hamroh bo'lishi mumkin bo'lgan tijoriy, ishbilarmonlik xatlari, hujjatlar va boshqalarni alohida aloqa turi sifatida ajratish mumkin. Umumiy shaklda tijoriy muloqotning shakllari quyidagi rasm orqali tizimli ifodalangan:



1-rasm. Tijoriy muloqot shakllari

¹² Большаков С. Н. Бизнес-коммуникации : учеб. пособие / С. Н. Большаков, М. О. Потолокова — СПб.: С.-Петербург. гос. ун-т, филол. ф-т, 2012. — 137 с. — С. 55

¹³ Карлова Е. Ю. Этика бизнес-коммуникаций в современной России: автореф. дис. ... канд. философ. наук. — Москва, 2015. — 26 с. — С. 14

¹⁴ Сафаров Ш. Семантика. —Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2013. — Б. 7.

Ko'rinib turgani kabi ishbilarmonlik muloqoti turli shakllarda bo'lishi mumkin, u professional jihatdan muhim natijalarga erishish bilan bog'liq bo'lgan juda xilma-xil vaziyatlar majmuasini qamrab oladi, yuqori o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega, og'zaki va yozma ravishda amalga oshirilishi mumkin, muayyan funksiyalarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi mumkin, bu biznes-nutqni o'rganish jarayonlarini sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Ishbilarmonlik muloqotda lisoniy imkoniyalarning voqelanishini tahlil qilish uchun dissertatsiyada bir qator materiallar ko'rib chiqilgan.

Ishbilarmonlik muloqot shakli va kommunikativ niyatlar tijoriy diskursni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Bundan tashqari, tijoriy diskursning shakllanishiga boshqa kommunikativ omillar ham ta'sir qiladi. Ishbilarmonlik muloqotining namoyon bo'lishining yuqori variantivligi va xilma-xilligiga qaramay, o'zaro aloqalarni tijoriy sifatida baholashga imkon beradigan bir qator xususiyatlarni aniqlash mumkin. Avvalo, bunday xususiyatlarga muloqot sohasi – kasbiy, tijoriy, ya'ni o'zaro ta'sirning o'ziga xos jihatlarini, aloqaning muhim belgilarini shakllantiradigan foyda olish bilan, bozor munosabatlari, iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liqlikni kiritish kerak.

Yuqoridagi tasniflarga qo'shimcha ravishda S. Mo'minovning quyidagi yondashuvini ham keltirish joiz: Muloqotda adresant va adresatlar faoliyati funksional farqlangani kabi kompozitsion jihatdan ham farqlanadi. Shuning uchun biz adresant va adresatlar faoliyatini kompozitsion jihatdan alohida-alohida tahlil etishni ma'qul topdik va ular faoliyatini quyidagi bosqichlarga ajratdik: **I. Adresant faoliyati**

bosqichlari: 1. Salomlashuv va murojaat bosqichi. 2. Tanishuv bosqichi. 3. Daromad bosqichi. 4. Muddao bosqichi. 5. Xotima yoki xayrlashuv bosqichi. II. Adresat faoliyati bosqichlari: 1. Tinglash bosqichi. 2. Munosabat bildirish bosqichi.¹⁵

Shunday qilib, olib borilgan tahlillar asosida biz tijoriy muloqot biznes muloqoti shakllaridan biri, degan xulosaga kelishimiz mumkin, bu bozor iqtisodi institutlari bilan bog'liq bo'lgan moddiy manfaatlarga erishish maqsadiga bo'ysunadigan kasbiy muammolarni hal qilishga qaratilgan tijorat subyektlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, iqtisodiyot, xususiy mulk huquqlari, o'zida to'g'ridan-to'g'ri biznes, ham akademik, shaxsiy va kundalik subkurslarning tarkibiy qismlarini sintez qilishdir. Tijoriy muloqot bir xil emas, u o'zgaruvchanligi, namoyon bo'lishining xilma-xilligi bilan ajralib turadi, bu bir nechta janrlarni, tijoriy diskursning invariantlarini, shu jumladan ishbilarmonlik suhbatlari, muzokaralar, press-relizlar, brifinglar, biznes uchrashuvlar, taqdimotlar va boshqalarni ajratib olishga imkon beradi. Tijorat muloqot sezilarli darajada farq qiladi, ularni amalga oshirish xususiyatlariga bir qator omillar ta'sir qiladi, shu jumladan, (1) adresat tabiati; (2) adresant tabiati; (3) kommunikantlarning pozitsion (rol) munosabatlari; (4) kommunikantlar o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik masofa ham muhim ahamiyatga ega. Tijoriy o'zaro ta'sirning maqsadlari kasb, tijorat tashkilotlari yoki muassasalarining faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Avvalroq aytib o'tilganidek, tijoriy muloqotning asosiy maqsadi moddiy manfaatlar olish, professional muhim muammolarni hal qilishdir.


¹⁵ Мўминов С. Ўзбек мулоқот ҳулкининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари – Фарғона: 2020. – Б.62

Tijorat muloqotining maqsadlari va funksiyalari tijoriy muloqotning uslubiy xususiyatlarini belgilaydi.

Dissertatsiyada tijoriy matn turlari ajratilgan va tahlil qilingan.

Rasmiylik, aniqlik, standartlashtirish, tijoriy muloqotning qisqartirilishiga erishish tegishli leksik va sintaktik vositalarni tanlash orqali amalga oshiriladi.


Grafik shaklda ishbilarmonlik muloqotining leksik xususiyatlari 2- rasmda ko'rsatilgan:



2-rasm. Ishbilarmonlik muloqotining leksik xususiyatlari


ma'noga ega.

Grafik shaklda ishbilarmonlik muloqoti umumiy lug'atining xususiyatlari 3-rasmda ko'rsatilgan:



3-rasm. Ishbilarmonlik muloqotida umumiy qo'llanuvchi leksika guruhlari

Eng umumiy shaklda tijorat matnining tuzilishini 6- rasmda ko'rsatilgandek tasavvur qilish mumkin:



4-rasm. Tijoriy matn tuzilishi

Tijoriy matn murakkab tuzilgan shakl bo'lib, uning har bir komponenti ma'lum darajadagi avtonomiyaga ega bo'lgan holda semantik yaxlitlikni shakllantirishga kiradi.

Milliy fazilatlar tijorat aloqalarini amalga oshirishda namoyon bo'ladi. O'zbek tijoriy muloqotida diniy, islomiy tushunchalar ustuvorlik qiladi. Savdo-sotiq ishlarida ko'pchilik bu faoliyat bilan Muhammad alayhissalom shug'ullanganligi e'tiborga olinadi. Asosiy rasmiy muloqot, ya'ni bitimlar shartnoma bandlari, qonunchilik hujjatlari orqali hal etilsa ham o'zaro muloqot shariat doirasida hal qilinadi. Savdogarlar va tadbirkorlar, shuningdek, xaridorlar o'rtasini diniy-islomiy aqidalar boshqarib, tartibga solib turadi. O'zbek ishbilarmonlari nutqida g'arbdagilardan farqli o'laroq qat'iylik, ichki ishonch, katta tavakkalchilik, qo'rqmasdan harakat boshlash kabi biznes muhiti uchun zarur bo'lgan sifatlarni ko'rish mumkin.

Ishning ikkinchi bobi "Psixolingvistik tahlil tijoriy nutqiy jarayonlar va hodisalar tadqiqining yangi yo'nalishi sifatida" deb nomlanadi va quyidagi qismlardan iborat: "Psixolingvistik tahlilni amalga oshirish masalalari", "Tijoriy tahlil materialida psixolingvistik jihatlar", "Psixolingvistik tadqiqot metodikasi".

Tadqiqotning belgilangan maqsadi va vazifalariga muvofiq, zamonaviy tijoriy diskursni psixolingvistik o'rganish metodologiyasini ishlab chiqilgan. Psixolingvistik tahlil – bu lingvistik tahlil turlaridan biri, tilshunoslik va psixologiya tutashgan joyda shakllangan psixolingvistik hodisalar sohasidagi ilmiy taxminlarni rad etish yoki tasdiqlash usuli. Odatda, psixolingvistik tahlil til haqidagi yangi bilimlarni keltirib chiqarishga yoki nutqni aks ettirish bilan bog'liq nutqni, uning idrokini ishlab chiqarishga qaratilgan ba'zi operatsiyalarga qaratilgan. Shunga ko'ra, A. A. Leontev psixolingvistik metodlarning asosiy vazifasi – bu odamni, ona tili bilan yaqin aloqada bo'lgan tilni, til tizimini o'rganish ekanligini ta'kidlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, psixolingvistik tadqiqot usullari til haqida empirik ma'lumotlarni to'plash jarayonida

katta rol o'ynagan¹⁶. Psixolingvistik eksperimentning asosiy maqsadi leksik birlikning psixolingvistik ma'nosini aniqlash sifatida ko'rsatilishi mumkin. Psixolingvistik ma'no, odatda, leksikografik korrelyatiga qaraganda kengroq va hajmlidir, uning tarkibiy qismlari psixolingvistik ma'noda yorqinligi jihatidan har xil joylarni egallashi mumkin. So'zning an'anaviy leksikografik tavsifi so'zlovchilarning psixologiyasi, produtsientning psixologik realligini emas, asosan denotativ ma'nolarni tavsiflashni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvni amalga oshirish tilda, matnlarda, lug'atlarda, og'zaki va yozma nutqda allaqachon belgilab qo'yilgan narsalarning, allaqachon shakllangan, aniqlangan narsalarning tavsifini nazarda tutadi.

Tadqiqot maqsadlariga muvofiq, psixolingvistik tadqiqotlarni o'tkazish metodologiyasiga muvofiq, materiallarni yig'ish jarayonida o'zbek rasmiy uslubiga xos matnlarga murojaat qilish mumkin¹⁷. Bizning tadqiqot ishimizda maishiy tijoriy matnlar tahliliga ko'p e'tibor berilgan. Tijoriy matnlar ko'rinishlarida psixolingvistik jihatlar tahlili masalasi nazariy jihatdan ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, dissertatsiya hajm imkoniyatlaridan kelib chiqib maishiy tijoriy matnlar amaliy tahliliga e'tibor qaratildi.

So'nggi yillarda korpus tilshunosligi rivojlangan lingvistik, ijtimoiy va madaniy tadqiqotlar yo'nalishiga aylandi. Zamonaviy korpus juda katta hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, shuningdek, zamonaviy manbalar tadqiqotchiga o'rganilayotgan material bilan ishlashni osonlashtiradigan ko'plab funksiyalarni taqdim etadi, bu korpus tahlilidan nafaqat tilning grammatik jihatlarini, balki semantik jihatlarini ham aniqlashga imkon beradi.

O'zbek tilining milliy korpusi yaratilsa, eng yirik, global miqyosdagi narsalardan biri bo'lib, tadqiqot maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan subkorpuslarni ko'rsatishga imkon beradi. Ushbu tadqiqotning maqsadi va vazifalarini hisobga olgan holda tijoriy diskurs zarur subkorpus vazifasini bajaradi.

Psixolingvistik tahlilni amalga oshirish jarayonida to'plangan material miqdoriy va sifatiy tadqiq qilinadi.

Psixolingvistik tahlilni amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodologiya asosi – leksemaning ma'nosining ajralmas konsepsiyasi, ensiklopedik ma'no tushunchasi va so'zning maydon tushunchasi¹⁸.

Assotsiativlar maydon tuzilishi darajalari bo'yicha taqsimlanadi: yadro assotsiatsiyalari, yarim atrofi assotsiatsiyalari, periferiya assotsiatsiyalari.

a) olingan reaksiyalarning semantik talqini, olingan birlashmalarni so'z-belgining semantik tarkibiy qismlarining lingvistik tasavvurlari sifatida tushunishdan iborat. Tavsif bir qator bosqichlarni o'z ichiga oladi:

I. ma'no denotativ komponentining tavsifi;

II. tarkibiy, xarakterli qismni tavsifi;

¹⁶ Chen Tsung-Ying, Myers James. Worldlikeness: A Web-based Tool for Typological Psycholinguistic Research. University of Pennsylvania Working Paper of Linguistics. — 2017. — Vol. 23. — Issue 1. — P. 22 — 34. — P. 22

¹⁷ Давлат тилида иш юритиш. —Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. — Б.296.

¹⁸ Стернин И.А., Рудакова А. В., Виноградова О.Е. Проект «Значение как феномен актуального языкового сознания носителя языка (проблема теоретического и лексикографического описания)»// Официальный сайт И. А. Стернина. Электронный ресурс. Адрес доступа: <http://sterninia.ru/index>.


III.funksional qismning tavsifi: maqsadi, shakli, hajmi va boshqalar;

munosabat tavsifi tashqi ma'no aloqalarini aks ettiradi, quyidagi parametrlarni o'z ichiga oladi: (1) oldingi matnlarni aktuallashtirish – assotsiatlar badiiy adabiyot, folklor, badiiy filmlar va boshqalar bilan bog'liqlik uyg'otishi mumkin; (2) turg'un iboralar – assotsiatlar frazeologik birliklar, barqaror konstruksiyalar va boshqalar bilan aloqaning mavjudligini aks ettirishi mumkin; (3) kommunikativ javob – rag'batlantiruvchi so'z ma'lum barqaror aloqa strategiyasini aks ettirishi mumkin (masalan, tashakkur – arzimaydi).

Bundan tashqari, munosabat, metamatn komponentining tavsifi (1) baholovchi xususiyatlarni, ijobiy, salbiy, neytral bahoni ifodalashni o'z ichiga oladi; (2) keyingi bosqichda ma'nolarni hissiy tavsiflash amalga oshiriladi: ijobiy-hissiy, salbiy-hissiy, hissiyotsiz munosabatni ifodalash.

Tijoriy muloqotda ma'lumot berish, rad etish, shikoyat qilish, rag'batlantirish, kechirim so'rash niyatlarini aks ettirishning hissiy yukini aniqlashga murojaat qilish tuyg'ular insonning ma'nosini shakllantirish jarayonlarini, tilda ma'nolarni aks ettirish jarayonlarini tartibga solishi bilan bog'liq. Hissiylik – nutqning ayrim turlarining semantik dominantidir (masalan, badiiy). V. A. Pishchalnikova ta'kidlaganidek, hissiyotlar “ma'lum bir daqiqagacha badiiy asarning yagona semantik markazidir”¹⁹. Dissertatsiyada badiiy asarlardan olingan tijoriy mazmunli matnlar psixolingvistik jihatdan tahlil qilingan.

Psixolingvistik tahlil o'tkazish metodologiyasi 5-rasmda ko'rsatilishi mumkin:



5- rasm. Psixolingvistik tahlil o'tkazish jarayoni

Ko'rib turganingizdek, psixolingvistik tahlil o'tkazish bosqichma-bosqich jarayon bo'lib, uning har bir bosqichi leksemaning psixolingvistik ma'nosi, uning denotativ, konnotativ ma'nolari, leksema bilan bog'liq assotsiatsiyalar, boshqa leksik birliklar bilan o'zaro aloqalar va sintaktik konstruksiyalar haqida to'liqroq tushuncha beradi. Psixolingvistik tahlilni amalga oshirish jarayonida quyidagi usullar qo'llaniladi: leksikografik tavsiflash usuli, korpus tahlili, sema talqini, semem talqin, assotsiativ reaksiyalarni umumlashtirish usuli, assotsiativ tajribalar natijalarini birlashtirish usuli.

¹⁹ Пищальникова В.А. Концептуальный анализ художественного текста: Учеб. пособие. – Барнаул, 1991. – 87 с. — С. 18

Ishning uchinchi bobi “Tijoriy matnda kommunikativ niyatlarni amalga oshirish (ayrim psixolingvistik tahlillar asosida)” deb nomlanadi va quyidagi qismlardan iborat: “Axborot berish, xabardorlikni amalga oshirish”, “Niyatni amalga oshirish”, “Tijoriy matnda shikoyatning ifodasi”, “Rad etishning nutqiy reprezentatsiyasi”, “Kechirishning nutqiy reprezentatsiyasi”.

Tadqiqotning amaliy qismida kommunikativ niyatlarni tijoriy matnda aks ettirish xususiyatlarini ishlab chiqilgan metodologiyaga muvofiq psixolingvistik tadqiqotlar asosida tavsiflangan.

